

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi

*61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) bakalavriat ta’lim  
yo‘nalishining malaka talablari*

Toshkent-2023

YCP OYMTB  
Fayzov № 344  
7.08.2023

## **ISHLAB CHIQILGAN:**

• Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti.

• O'zR Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi

## **TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2023 yil «7» 08 dagi 399 - buyrug'i bilan tasdiqlangan.

## **JORIY ETILGAN:**

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Asosiy qoidalar", "Oliy ta'lif davlat ta'lif standarti. Oliy ta'lif yo'nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori", O'zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me'yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi  
O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

T/r		bet
1.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishining umumiy tavsifi.....</i>	4
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talabining qo'llanishi.....</i>	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari.....	4
1.2.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....</i>	4
1.2.1.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatining sohalari .....</i>	4
1.2.2.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining obyektlari .....</i>	4
1.2.3.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari .....</i>	5
1.2.4.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy vazifalari.....</i>	5
2.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</i>	7
2.1.	Umumi kompetensiyalar.....	7
2.2.	Kasbiy kompetensiyalar.....	7
2.3.	Umumi va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.....	8
2.3.1.	Kvalifikatsiya.....	8
2.3.2.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar.....</i>	9
2.3.3.	<i>61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha ta'lim dasturining tuzilishi.....</i>	10
	Bibliografik ma'lumotlar.....	11
	Kelishuv varag'i .....	12

## **1. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nali shining tavsifi**

**61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda)** ta'lim yo'nali shini bo'yicha bakalavrilar tayyorlash kunduzgi, kechki, sirtqi va masofaviy ta'lim shakllarida amalga oshiriladi. Barcha ta'lim shakllari bo'yicha o'qitish kredit-modul tizimi asosida tashkil qilinadi. Kunduzgi ta'limda bakalavriat dasturining me'yoriy muddati 4 yil,

### **1.1. Qo'llanish sohasi**

#### **1.1.1. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nali shi Malaka talabining qo'llanilishi.**

Malaka talabi **61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda)** ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar tayyorlovchi barcha oliy ta'lim muassasalari uchun talablar majmuuni ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

- mazkur ta'lim yo'nali shi bo'yicha malaka talablari, o'quv reja va fan dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o'quv jarayonini samarali amalga oshirish uchun mas'ul hamda o'z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta'lim muassasasining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o'quv bo'limi boshlig'i, dekanlar va kafedra mudirlari) va professor-o'qituvchilari;
- ta'lim yo'nali shining o'quv rejasni va fan dasturlarini o'zlashtiruvchi oliy ta'lim muassasasining talabalari;
- bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalar;
- ta'limni boshqarish bo'yicha vakolatli davlat organlari;
- oliy ta'lim muassasalarini moliyalashtirishni ta'minlovchi organlar;
- oliy ta'lim tizimini akkreditatsiya va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;
- kadrlar buyurtmachilari, ish beruvchi tashkilot va korxonalar;
- oliy ta'lim muassasalariga o'qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

#### **1.2. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

##### **1.2.1. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatining sohalari:**

**61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nali shi** – fan va texnika sohasidagi yo'nali shi bo'lib, u mehnat jarayonida insonning xavfsizligini, hayoti va sog'lig'i, ish qobiliyati saqlanishini ta'minlashga doir huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, tashkiliy, texnikaviy, sanitariya-gigiyena, davolash-profilaktika, reabilitatsiya tadbirlari hamda vositalari tizimini ishlab chiqish, amaliyotga tadbiq qilish, nazorat qilish va ulardan foydalanishga, soha istiqbolini belgilashga, kasbiy ko'nikma, mutasaddilik qobiliyatiga yo'naltirilgan inson faoliyatining vositalari, usullari, metodlari va uslublarining majmuasini qamrab oladi.

##### **1.2.2. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nali shi bo'yicha bakalavrilar kasbiy faoliyatlarining obyektlari:**

- O'zbekiston Respublikasi Kambag'allikni qisqartirish va bandlik vazirligi, Favqulodda vaziyatlar vazirligi tuzilmalari va markazlari, shuningdek hayot faoliyati xavfsizligi o'quv markazlari;

- davlat va nodavlat tashkilot, korxona va muassasalar, kompaniyalar (firmalar), ishlab chiqarish birlashmalarida;
- davlat boshqaruvi organlarida, mulkchilik shaklidan qat'iy nazar turli xil shakldagi mult, sanoat va biznes tashkilotlarida;
- sanoat va ishlab chiqarish korxonalari;
- mehnatni muhofaza qilish tizimida ishlatiladigan jihozlar va ularning konstruksiyalarini montaj qilish va sozlash korxonalar;
- ilmiy va ishlab chiqarish faoliyatini texnikaviy ta'minlash vositalari; professional ta'lim muassasalaridagi o'quv-tarbiya jarayoni.

*61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavriat bitiruvchilari texnika sohasidagi bakalavriat ta'lim yo'nalishini tamomlagandan so'ng, iqtisodiyot tarmoqlarida mehnatni muhofaza qilish tizimida ishlatiladigan jihozlar va ularning konstruksiyalarini montaj qilish va sozlash korxonalarida faoliyat olib borish hamda mehnatni muhofaza qilish tizimini loyihalash tashkilotlarida kompleks masalalarni yechish huquqiga ega bo'ladi.*

#### ***1.2.3. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlar kasbiy faoliyatlarining turlari:***

- *gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi, loyiha-konstrukturlik faoliyati;*
- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish-teknologik faoliyati;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*

#### ***1.2.4. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrlarning kasbiy vazifalari.***

*61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq, bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:*

##### ***Gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi, loyiha-konstrukturlik faoliyati:***

- gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasini ta'minlovchi qurilmalarining qismlari va jihozlari hamda yig'ma birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish qobiliyatlar;
- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilish;
- loyihami va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish;
- gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi vositalari va jihozlarini ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish qobiliyati;
- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirish.

##### ***Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:***

- zamonaviy metodlar va vositalardan foydalanib faoliyat obyektlari holatini tahlil qilishda ishtirok etish;
- gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi sohasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarni loyihalash, ishlab chiqish, sinash va ulardan samarali foydalanishda ishtirok etish;

- samarasiz vaqt, mehnat va moddiy resurslarni kamaytirish, ratsional texnologik jarayonlarni tanlash bo'yicha tadqiqotlarni o'tkazishda qatnashish;

- gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi ta'lim sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy-texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi axborotlarning ilmiy manbalarini o'rganish;

- tahlil, hisobotlar va ilmiy publikatsiyalarni tuzish uchun ma'lumotlarni tayyorlash;

- mavzu (topshiriq) bo'yicha ilmiy-texnikaviy ma'lumotlarni yig'ish, ishlov berish, tahlil qilish va olingan ma'lumotlarni tizimlashtirishda ishtirok etish;

- ilmiy-tadqiqot natijalarini va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etishda qatnashish bo'yicha faoliyat olib borish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

#### **Ishlab chiqarish-texnologik faoliyatida:**

- gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi jabhasidagi obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalardan samarali foydalanish;

- tizimlar, texnologik jarayonlar, ularning elementlari va texnologik hujjatlarni ishlab chiqishda ijrochilar jamoasi tarkibida ishtirok etish;

- obyektlar, jarayonlar, tizimlar, jihozlar va texnik vositalarning ekspluatatsiya xavfsizligini ta'minlash;

- ishlab chiqarishni tashkil etish va takomillashtirish bo'yicha texnologik yechimlarni ishlab chiqish;

- texnikaviy-iqtisodiy tahlil qilish;

- ishlab chiqarishni tashkil etishning samarali usullarini tanlash va qo'llash;

- kasbiy etika qoidalariiga rioxva qilish.

#### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

- fuqarolik jamiyatining dolzarb masalalarini bilishi, O'zbekiston rivojlantirish strategiyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga;

- dunyoqarash bilan bog'liq falsafiy bilimlarga tizimli ega bo'lishi, mustaqil tahlil qila olishi, kasbiy faoliyatida ularni hisobga ola bilishi;

- Vatan tarixini bilishi, ma'naviy milliy va umuminsoniy qadriyatlар masalalari yuzasidan o'z fikrini bayon qila olishi va ilmiy asoslay bilishi, milliy istiqlol g'oyasiga asoslangan faol hayotiy nuqtai nazarga ega bo'lishi;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda hayotda va o'z kasb faoliyatida foydalana bilishi;

- axborot yig'ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, o'z kasbiy faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olishi;

- tegishli bakalavriat yo'nalishi bo'yicha raqobotbardosh umumkasbiy tayyorgarlikka ega bo'lishi;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olishi;

- sohaga oid innovatsiyalarni amaliyotga tatbiq qilishni tashkil etish;

- ijrochilar jamoasi ishini tashkil qilish;

- fikrlar har xil bo'lgan sharoitda boshqaruv qarorini qabul qilish;

- nazorat qilish va amalga oshirilgan ishlarning natijalarini baholash;

- bajarayotgan faoliyati bo'yicha ish rejasini tuzish, nazorat qilish va amalga oshirilgan ishning natijalarini baholash;

- pullik xizmatlarini tashkil etish va amalga oshirish;

- ixtisoslikka mos mavzu bo'yicha turli xizmatlarni ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'lishi lozim.

## **2. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлarning kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar**

### **2.1. Umumiy kompetensiyalar:**

- davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilishi, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

- mantiqiy fikrasharlarni rivojlantirish, to'g'ri xulosa chiqarish, matematik madaniyatni shakllantirish;

- xorijiy tillardan birida kasbiy faoliyatiga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunishi, tabiiy ilmiy fanlar bo'yicha kasbiy faoliyati doirasida zaruriy bilimlarga ega bo'lishi hamda ulardan zamonaviy ilmiy asosda kasb faoliyatida foydalana bilish;

- axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo'llay bilishi, axborotlarni yig'ish, saqlash, qayta ishslash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo'lishi, faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;

- yangi bilimlarni mustaqil egallay bilishi, o'z ustida ishlashi va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

- sog'lom turmush tarzi va unga amal qilish zarurati to'g'risida tassavvurga ega bo'lish.

### **2.2. Kasbiy kompetensiyalar:**

- me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatida foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mehnatni muhofaza qilish vositalarini qismlari va jihozlari hamda yig'ma birliklarining loyihasini tizimli yondoshuv asosida avtomatlashtirilgan ravishda ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- bajarilayotgan tajriba-konstrukturlik va amaliy ishlar mavzusi bo'yicha matematik, informatsion va imitatsion modellarni ishlab chiqish va tadqiqot qilishni bilish;

- loyihaviy va dasturiy hujjatlarni ishlab chiqish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mehnatni muhofaza qilish vositalari va jihozlarini ishchi parametrlarini aniqlash bo'yicha sinovlarni o'tkazish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- amaliyotda axborot texnologiyalarining xalqaro va kasbiy standartlarini, zamonaviy paradigma va metodologiyalarni, instrumental va hisoblash vositalarini tayyorgarlik ixtisosligiga mos ravishda qo'llash qobiliyatlarini o'zlashtirishni bilish;

- mehnatni muhofaza qilish tizimi jarayonlarini bajarish, maromiga yetkazish va o'zlashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mehnatni muhofaza qilish tizimini loyihalashtirishda texnologik intizomga rioya qilinishini nazorat qilishni bilish;

- kasbiy etika kodeksiga rioya qilish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- mehnatni muhofaza qilish tizimida resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha tadbirlarni ishlab chiqish va tatbiq qilishni bilish;

- ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi tizimida mehnat jarayoni uzlusizligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan resurslarni rejalashtirish ko'nikmalariga ega bo'lish;

- gigiyena va ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi sohasidagi maxsus adabiyotlar, ilmiy texnikaviy ma'lumotlar, chet elda va respublikamizda erishilayotgan fan va texnika sohasidagi yutuqlarni o'rGANISH ko'nikmalariga ega bo'lish;

- ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi tizimlari va jihozlarini montaj qilish, sozlash, sinash va foydalanishga topshirish qoidalari va texnologiyasini bilish;

- ishlab chiqarishda mehnat muhofazasi qurilmalar jihozlarini, konstruksiyalar va asbob-uskunalarning texnik holatini tekshirish va qoldiq resursini baholash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak.

### **2.3. Umumiy va kasbiy kompetensiyalarni egallashni ta'minlaydigan fanlar va amaliyotlarga qo'yiladigan talablar**

Bakalavriat ta'lif yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantiriladi va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar *majburiy va tanlov* fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqiladi.

#### **1. Majburiy fanlar (mantiqiy uzviyligi bo'yicha):**

➤ Mantiqiy davomli fanlar – mantiqiy ketma-ketlikda bir-birini to'ldiruvchi fanlar jamlamasi. Bunda oldin keladigan fan bo'yicha talabaning kredit ololmasligi, keyingi mantiqiy davomi bo'lgan fan bo'yicha talabaning mashg'ulotlarga kiritilmasligiga olib kelishi mumkin.

➤ Alovida fanlar – kasbiy kompetensiyalarini yakka holda shakllantirishga xizmat qiladigan davomli bo'lmagan fanlar. Bunda mazkur fanlar bo'yicha talaba kredit ololmaganiga GPA bo'yicha o'zlashtirish ballari yetarli bo'lsa, keyingi bosqichda boshqa fanlar bo'yicha talabaning mashg'ulotlarni davom ettirish imkonini beradi.

#### **2. Tanlov fanlari.**

➤ Chuqur ixtisoslashuv tanlov fanlari – ixtisoslashuvdan kelib chiqib, chuqurlashtirilgan fanlar bo'yicha qo'shimcha bilim berishga va bevosita ixtisosligi uchun zarur kompetensiyalarini kengaytirishga xizmat qiladigan fanlar jamlamasi. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 80% dan kam bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

➤ Shaxsiy qiziqishga qaratilgan fanlar – talabaning tanlagan ta'lif yo'nalishidan qat'iy nazar, shaxsiy qiziqishlari, ijodiy yondashuvlari va iqtidorini qo'llab-quvvatlashga qaratilgan fanlar. Ushbu fanlarga jami tanlov fanlariga ajratilgan soatlarning 20% dan ko'p bo'lmagan qismi taqsimlanishi mumkin.

Tanlov fanlari ta'lif oluvchilar qo'shimcha chuqur nazariy va amaliy bilim va ko'nikmalarini o'zlashtirishini, innovatsion usullar va sohaning hududiy omillarini hisobga olgan holda kasbiy kompetensiyalari kengaytirishga xizmat qiluvchi fanlar majmuasidan iborat bo'lib, har bir tanlov fanlar jamlamasiga uchtadan kam bo'lmagan o'rmini bosuvchi fanlar kiritilishi mumkin. O'quv rejadagi tanlov fanlari majmuasining umumiy soni 10 tagacha bo'lishi mumkin.

#### **3. Malakaviy amaliyot.**

Bakalavrular tayyorlashda quyidagi malakaviy amaliyotlar o'tkaziladi:

2,3-bosqichlarda malakaviy amaliyot – Ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan olingan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlar bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi;

4-bosqichda malakaviy amaliyot – ishlab chiqarishda (tegishli soha korxona, tashkilot va muassasalarida) kasbiy ko'nikmalarni yanada mustahkamlash, kasbiy faoliyatga moslashish, bitiruv malakaviy ishni tayyorlash uchun ma'lumot toplash va tizimlashtirishga qaratiladi;

Ta'lif yo'nalishlarining o'ziga xos xususiyatlariga muvofiq malakaviy amaliyotlarning boshqa turlari ham qo'llanilishi mumkin.

##### **2.3.1. Kvalifikatsiya: Texnika xavfsizligi muhandisi**

**2.3.2. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lim yo'nalishi uchun ajratilgan o'quv fanlari, bloklar bo'yicha soatlar va kreditlar**

O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Kunduzgi ta'lim shakli uchun fanlarga ajratilagan soat	Ajratilgan kredit
Majburiy fanlar	4920	164
Tanlov fanlari	1710	57
Malakaviy amaliyot	420	14
Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5

**2.3.3. 61020200-Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (sanoatda) ta'lif yo'nalishi  
bo'yicha ta'lif dasturining tuzilishi**

T.r.	Fanning malakaviy kodi	O'quv fanlari, bloklar va faoliyat turlarining nomlari	Umumiylar yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>		<b>Majburiy fanlar</b>	<b>4920</b>	<b>164</b>	
1.01	O'RT1204	O'zbek (rus) tili	120	4	2
1.02	DIN1104	Dinshunoslik	120	4	1
1.03	KIM1104	Kimyo	120	4	1
1.04	XT1308	Xorijiy til 1,2	240	8	1,3
1.05	FIZ1210	Fizika 1,2	300	10	1,2
1.06	OM1315	Oliy matematika 1,2,3	450	15	1,2,3
1.07	O'EYT1204	O'zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	2
1.08	TTAT1204	Texnik tizimlarda axborot texnologiyalari	120	4	2
1.09	MKG1204	Muhandislik va kompyuter grafikasi	120	4	2
1.10	MS2304	Metrologiya va standartlashtirish	120	4	3
1.11	SIM4704	Soha iqtisodiyoti va menejmenti	120	4	7
1.12	FAL3504	Falsafa	120	4	5
1.13	EKA3604	Ekologiya	120	4	6
1.14	NazM2404	Nazariy mexanika	120	4	4
1.15	HFX2304	Hayot va inson faoliyati xavfsizligi	180	6	3
1.16	FVX2411	Favqulodda vaziyatlarda xavfsizlik	330	11	3,4
1.17	MMX3712	Mashina va mexanizmlar xavfsizligi	300	10	6,7
1.18	MM4814	Mehnat muhofazasi	360	12	7,8
1.19	YX2512	Yong'in xavfsizligi	360	12	4,5
1.20	RX4805	Radiatsiya xavfsizligi	150	5	8
1.21	SX4807	Sanoat xavfsizligi	180	6	8
1.22	EA250	Ergonomika asoslari	300	10	4,5
1.23	BIX14810	Bino va inshootlar xavfsizligi	300	10	7,8
1.24	MGS2405	Mehnat gigiyenasi va sanitariyasi	150	5	4
<b>2.00</b>		<b>Tanlov fanlari</b>	<b>1710</b>	<b>57</b>	
2.00		Tanlov fanlari (9 ta fan)	1710	57	1,2,3,5,6,7,8
		Jami	6630	221	
		Malakaviy amaliyot	420	14	4, 6, 8
		Yakuniy davlat attestatsiyasi	150	5	8
		Jami	570	19	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	



## Bibliografik ma'lumotlar

UDK: 002-651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### Tayanch so'zlar:

Kasbiy faoliyat turi, kompetensiya, modul, ta'lim yo'nalishi, kasbiy faoliyat obyekti, kasbiy faoliyat sohasi, bakalavriatning asosiy o'quv reja va fan dasturi, qonun, qoida, qaror, oliv ta'lim, o'quv jarayoni, konsalting, malaka amaliyoti, bitiruv malakaviy ish, sanoat korxonasining mehnat muhofazasi, hayot faoliyati xavfsizligi, ish yuklamasi, texnik tizimlarning ishonchliligi, elektr xavfsizligi, sanoat xavfsizligi, radiatsiya xavfsizligi, baholash, sifat nazorat, davlat attestatsiyasi, mustaqil ta'lim, o'quv fanlari bloki, mundarija, oliv ta'lim muassasasi, ta'lim jarayoni, profil, amaliyot obyekti, kadrlar sifati, yuklama, yuklama hajmi, ichki nazorat, yakuniy davlat nazorati, davlat-jamoatchilik nazorati, tashqi nazorat, moddiy-texnik baza.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta'lim muassasalari  
hamda kadrlar iste'molchilari  
**ISHLAB CHIQILGAN:**



Islom Karimov nomidagi  
Toshkent davlat texnika universiteti

Rektor I.T. Turabjanov prof. S.M. Turabdjanov

2023 yil « 03 » 07

O'zR Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon,  
geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi  
Axborot tahlil va ijro intizomi bo'limi boshlig'i

o'rinnbosari O.A. Djurayev

2023 yil « 03 » 07

M.O.



**KELISHILGAN:**

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy ta'limni  
rivojlantirish tadqiqotlari markazi

Direktor

Sh.Yakubov

M.O.

"Toshkent irrigatsiya va qishloq  
xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muxandislari institute" Milliy tadqiqot  
universiteti

Rektor

B.S. Mirzayev

2023 yil « 06 » 07

M.O.



Toshkent davlat transport universiteti

Rektor

O.Q. Abduraxmanov

M.O.

"Sanoat Energetika Guruhi" MChJ XK  
SX, MM va AMM Boshkarmasi

Boshliq

D.I. Salixov

M.O.

2023 yil « 06 » 07

“SANOAT ENERGETIKA GURUHI” MCHJ XEK  
SHAHAR MAS'ULIYATI XAVFSILIGI  
XAVFSILIGI MENLAT MUHOFAZASI VA ATROF  
MUHOFAZASI JAMHORIYATI  
BOSHKARMASI

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti**  
**61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi**  
**bo'yicha malaka talablari va o'quv rejasingning ishlab chiquvchilar, turdosh oliy ta'lim**  
**muassasalarini va asosiy kadrlar iste'molchilari o'rtaida**

**KELISHUV DALOLATNOMASI**

Toshkent sh.

" 7 " 07 2023 yil

Biz quyida imzo chekuvchilar – Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti rektori prof. S.M.Turabdjanov, O'zbekiston Respublikasi Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi Axborot tahlil va ijro intizomi bo'limi boshlig'i o'rinnbosari O.A. Djurayev, Toshkent davlat transport universiteti rektori O.Q. Abduraxmanov, "Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muxandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti rektori B.S. Mirzayev, "Sanoat Energetika Guruhi" MChJ XK SX, MM va AMM Boshkarmasi boshlig'i D.I. Salixov birgalikda ToshDTUda ishlab chiqilgan quydagi bakalavriat ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi mazmuni bilan tanishib chiqib, kelishuv haqida ushbu dalolatnomani tuzdik:

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi.

Malaka talablari hamda o'quv rejani ishlab chiqilishida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-2909-son, 2017 yil 27 iyuldag "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son, 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-son, 2018 yil 20 avgustdag "Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3913 Qarorlari, , O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 15 iyundagi "2023/2024 o'quv yili uchun davlat oliy ta'lim muassasalariga o'qishga qabul qilishning davlat buyurtmasi parametrlari to'g'risida"gi F-31-son Farmoyishiga hamda oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar, shuningdek, xalqaro talablarga asoslangan.

Mazkur malaka talablari va o'quv rejalarining ishlab chiqilishida asosiy kadrlar iste'molchilari tomonidan qo'yilgan talablar ham inobatga olingan.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha malaka talablari o'quv reja va fan dasturlari hamda boshqa hujjatlarni yaratish uchun asos bo'lib hisoblanadi.

Ishlab chiqilgan malaka talablari va o'quv rejani o'rnatilgan tartibda tasdiqqa tavsiya etish mumkin.

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat  
texnika universiteti rektori, professor**

 "S.M.Turabdjanov"

**O'zR Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi Tog'-kon,  
geologiya va sanoat xavfsizligini nazorat qilish inspeksiyasi  
Axborot tahlil va ijro intizomi bo'limi boshlig'i o'rinnbosari**

 "O.A. Djurayev"

**Toshkent davlat transport  
universiteti rektor**

 "O.Q. Abduraxmanov"

**"Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash  
muhandislari instituti" Milliy tadqiqot universiteti rektor**

 "B.S. Mirzayev"

**"Sanoat Energetika Guruhi" MChJ XK  
SX, MM va AMM Boshkarmasi boshlig'i**

 "D.I. Salixov"

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida  
ishlab chiqilgan 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi  
(tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha oliy ma'lumotli bakalavrлar  
tayyorlashning tayyorlarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga  
qo'yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o'quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

"Ta'lim to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunini ijpo etish, ta'lim mazmunini tubdan isloh qilish, tayyorlanayotgan kadrlar sifatining respublikada amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy va ijtimoiy islohotlar talablariga, shuningdek ta'lim, fan, texnika va texnologiyalar rivojlanishining ilg'or jahon darajasiga muvofiqligini ta'minlash bevosita malaka talablarining mazmuniga bog'liq.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishining malaka talablari va o'quv rejasi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 5 iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3775-sonli hamda O'zR OTFIVning 2023 yil 9 iyundagi "Oliy ta'limning me'yoriy-uslubiy hujjatlarini ishlab chiqish jarayonini takomillashtirish to'g'risida"gi 259-sonli buyrug'i, oliy ta'lim sohasini tartibga soluvchi boshqa normativ huquqiy hujjatlarga hamda xorij tajribalariga muvofiq ishlab chiqilgan.

Bakalavriat ta'lim yo'nalishi o'quv rejasi kredit-modul tizimi asosida shakllantirilgan va kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablarga muvofiq, talabalar majburiy va tanlov fanlarini o'zlashtirishi, amaliyotlarni o'tishi va natijada kasbiy faoliyatida zarur bilim, ko'nikma va malaka kompetensiyalarini egallashini ta'minlovchi mazmunda ishlab chiqilgan.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi xorij tajribasi asosida uyg'unlashtirilgan, ta'lim oluvchilarda chuqur bilim, mustaqil fikrlesh, yuksak kasb-kor malakasi shakllanishini ta'minlashga alohida e'tibor qaratilgan, bakalavrlarning fanlarni o'zlashtirish jarayonida tajriba, ko'nikmalar hamda tasavvurga ega bo'lish, qo'yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to'g'ri ko'rsatilgan. Malaka talablari va o'quv rejasida fan va texnika oldida turgan dolzarb muammolarni o'rganish va ularni ijobjiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg'ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma'lumotlarni tahlil qilishga keng o'rinn berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda ta'limni demokratlashtirish, insonparvarlashtirish, globallashuv sharoitida o'ziga xoslikni saqlash va jahon

ta'lismakoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo'yicha fanlar tarkibi, ularning o'zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo'yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo'llay olish ko'nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqilgan. Fanlar uchun belgilangan vaqt budgetining nazariy, amaliy, tajriba, mustaqil ishlar uchun taqsimoti bitiruvchining nazariy bilimlarini mustahkamlash va ularni amaliyotda muvaffaqiyat bilan qo'llash ko'nikmasini shakllantirishga qaratilgan.

Malaka talablari va o'quv rejasini ishlab chiqishda turdosh oliy ta'limga muassasalaining talab va takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) ta'limga yo'nalishi bo'yicha bakalavrler tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasini oliy ta'limga o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarini o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standartlash tizimi qoidalari talablarini qoniqtiradi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

Islom Karimov nomidagi

Toshkent davlat texnika universiteti

"Hayot faoliyati xavfsizligi" kafedrasи, professor



M.N. Musayev

**Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida ishlab  
chiqilgan 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar  
bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha oliy ma’lumotli bakalavrlar  
tayyorlashning tayyorgarlik darajasi va zaruriy bilimlar mazmuniga  
qo‘yiladigan talablar yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasiga**

**TA Q R I Z**

Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi malaka talablarini ishlab chiqilishida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Devonining 2018 yil 3 apreldagi 5002-sonli topshirig‘i va O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 5 iyundagi “Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minalash bo‘yicha qo‘srimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-3775-sonli hamda 2018 yil 20 avgustdagি PQ-3913 “Mehnat organlari tuzilmasini takomillashtirish va fuqarolarning mehnat huquqlarini himoya qilish va mehnatini muhofaza qilish tizimini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarorlari bilan tasdiqlangan tamoyillarga amal qilingan.

61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo‘yicha) ta’lim yo‘nalishi bo‘yicha tuzilgan yangilangan malaka talablari va o‘quv rejasida xorij tajribasi asosida uyg‘unlashtirilgan, ta’lim oluvchilapda chuquq bilim, mustaqil fikplash, yuksak kasb-kop malakasi shakllanishini ta’minalashga alohida e’tibor qaratilgan, bakalavrlearning fanlarni o‘zlashtirish jarayonida tajriba, ko‘nikmalar hamda tasavvurga ega bo‘lish, qo‘yilgan talablarni bilishi va ulardan samarali foydalana olish kabilar to‘g‘ri ko‘rsatilgan. Malaka talablari va o‘quv rejasida fan oldida turgan dolzarb muammolarni o‘rganish va ularni ijobiy yechimini izlab topishda zamonaviy uslub va texnologiyalarga, seminar mashg‘ulotlariga, mustaqil bilim olish hamda olingan ma’lumotlarni tahlil qilishga keng o‘rin berilgan.

Malaka talablarini ishlab chiqishda talabaning kelgusida faoliyat olib boradigan obyektlari misolida fan va texnikaning ilg‘or yutuqlaridan foydalangan holda jahon ta’lim makoniga integrallashtirish tamoyillariga amal qilingan. Malaka talablaridagi bloklar bo‘yicha fanlar tarkibi, ularning o‘zaro nisbatlari bitiruvchilarning tanlagan mutaxassisligi bo‘yicha olgan nazariy bilimlarini amaliyotda qo‘llay olish ko‘nikmasini kuchaytirish nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqilgan. Fanlarni shakllantirishda ularning mazmuni jihatidan izchilligi ta’milangan bo‘lib, bugungi kun talabidan kelib chiqib yangi fanlar kiritilgan.

Malaka talablari va o‘quv rejasini ishlab chiqishda asosiy kadr iste’molchilar bo‘lgan korxona va tashkilotlarning talab hamda takliflari inobatga olingan.

Xulosa qilib aytganda, 61020200- Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi (tarmoqlar bo'yicha) ta'lim yo'nalishi bo'yicha bakalavrлar tayyorlash uchun tuzilgan yangilangan malaka talablari va o'quv rejasi oliy ta'lim o'quv jarayonini jahon andozalari darajasiga yetkazishga yo'naltirilgan bo'lib, har tomonlama yetuk mutaxassislar tayyorlashga oid masalalarni o'z ichiga olgan va sifatli tuzilgan, O'zbekiston Respublikasi davlat standaptlash tizimi qoidalapi talablapini qoniqtipadi hamda uni tasdiqlashni taklif qilaman.

**O'zR Tog'-kon sanoati va geologiya vazirligi huzuridagi  
Tog'-kon, geologiya va sanoat xavfsizligini  
nazorat qilish inspeksiyasi Axborot tahlil va ijro  
intizomi bo'limi boshlig'i o'rinosari**

O.A. Djurayev

